

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA MADANIYAT

Anvar Qudratov Toshturdi o'gli¹

¹Termiz Davlat Universiteti Tarix fakulteti 4 - kurs talabasi

Xolbekov Toshturdi Qudratovich²

²Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va mexanizatsiya kafedrasini o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7215076>

Amir Temur va temuriylar davrida ham butun islom mamlakatlarida bo'lganidek islomiy shariat sud-huquq tizimining asosi hisoblanardi. Shariat ahkomlarini boshqarish mamlakatning bosh qozisi ixtiyoriga berilgan bo'lib, uning viloyatlaridagi maxkamalari faoliyati viloyat qozilari tomonidan olib borilgan. Qo'shin uchun alohida harbiy-sud tizimi mavjud bo'lib, uni qozi-askarlar - harbiy qozilar yuritganlar. Sud-huquq tizimida shayxulislom, sadr, mufti, mutavali, muxtasib va boshka amaldorlar ham katta o'rin tutgan.

Qozi - har bir shahar va viloyatda, devonning turli bo'g'inlarida qonunni nazorat qilgan. Qozilar darajasi va martabasiga ko'ra bir-birlaridan farq kilib turgan.

Sadrlar - asosan, sayyidlardan chiqqan shaxslar bo'lib ular ahli islomga boshchilik qilgan. Ularning eng muhim vazifalaridan biri mamlakatdagi vaqflarni nazorat qilish bo'lgan. Sadrlar suyurgolni ham belgilab turganlar.

Mutavalliy - sadrlar tomonidan vakflarni boshqarish va nazorat qilish uchun tayinlangan shaxs.

Mudarris - diniy masalalar, shariat, tafsir, hadis va fiqhdan dars beruvchi shaxs.

Muxtasib - bozorlarda tarozi, narx-navoni nazorat qiluvchi mas'ul shaxs.

Sohibqiron Amir Temur tomonidan yaratilgan va Davlat boshqaruvi sohasida o'z davrining mukammal qonun-qoidalarini o'z ichiga olgan tuzuklarda nafaqat davlat boshqaruvi, shu bilan birga jinoyat va jazo turlari haqida muhim qoidalar ham keltiriladi. Xususan, Temur tuzuklariga ko'ra:

- qaysi bir sipoxiy xaddidan oshib, qo'l ostidagi kishiga zulm qilsa, uni zulm ko'rgan kishiga topshirganlar na o'sha mazlum kishining o'zi sipoxiyini jazolagan.
- xazinabon moliya ishida xiyonat qilsa, tekshiruvdan so'ng, mas'ul shaxsning o'zlashtirib olgan mablag'i maoshidan ikki barobar ortiq bo'lsa, ortigi oladigan maoshi hisobidan o'shlab qolingan;
- qishloq oqsoqoli, shahar ulug'lari pastroq toifadagi kishiga zulm qilsa, o'sha zulmga yarasha katta miqdorda jarima solingan;
- xalqda jabr-zulm qilgan harbiy kishi jarima to'lagan yoki darra bilan kaltaklangan;
- kimda-kim o'g'irlik qilib, birovning molini o'g'irlasa o'shani qaytarishi

shart bo'lgan yoki yasoga muvofiq qattiq jazoga tortilgan.

“Temur tuzuklari” ko'rib chiqilayotgan davrda mavjud bo'lgan huquqiy munosabatlar haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradigan muhim tarixiy manba sifatida ham katta ahamiyatga egadir.

Ko'pgina temuriy hukmdorlar Sohibqironning buyuk davlatchilik an'alarini, bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini davom ettirdilar. Shoxrux Mirzo davrida (1407-1447) Xuroson, Ulug'bek Mirzo Ko'ragon (1394 - 1449) davrida Movarounnaxr siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ancha yuksaldi. Ayniqsa, ilm-ma'rifat bobida yuksak pog'onaga ko'tarildi. Samarqand shahri Sharqda ilm-fan markazi bo'lib shuxrat qozondi. Zotan, Ulug'bek Mirzoning sa'y-harakati va xomiyligi natijasida Sharqning mashhur allomalari, ulamoyu fuzalo, shoirlar, suxandon adiblar, yetuk musikashunoslar, tarix, falakiyot, tibbiyot, xandasa, matematika, mantiq, falsafa va boshqa fanlar namoyandalari Samarqandda yashab ijod qilardilar. Hunarmandchilikka va axli xunarga katta imkoniyatlar ochilgan edi. Ayniksa, zargarlik va kulolchilik yuksak pog'onalarga ko'tarilgan edi.

Ulug'bek Mirzo davrida Movarounnaxrning shahar va tumanlarida obodonchilik ishlari gurkirab o'sdi. Ko'plab masjid, Madrasa, rabot, sardoba, hammom va istirohat maskanlari kurildi. Jumladan, 1417 yilda Buxoroda, 1433 yilda G'ijduvonda Ulug'bek nomi bilan Madrasa kurildi. 1428 yilda jahonga mashhur Ulug'bek rasadxonasi kurildi. Bundan tashqari, Samarqand atrofida Bog'i Maydon nomli bog' va Shahrisabzda Ko'k Gumbaz masjidi barpo qilindi. Bu qurilishlar haqida Zaxiriddin Muhammad Bobur o'zining “Boburnoma” asarida mufassal ma'lumot bergan. Mazkur qurilishlarning ayrimlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Mazkur obidalarining salobati o'sha zamon me'morchiligi hamda qurilish ustalarining yuksak maxoratidan xabar berib turibdi.

Sohibqiron Amir Temur 1383 yilda Xurosonni zabt qilgach, bu o'lkani boshqarishni o'zining to'rtinchi o'g'li Shohrux Mirzoga (1377 - 1447) beradi. 1397 yili Shohruh Mprzo Xurosonga kelgach, mamlakat obodonchiligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yuksaltirish uchun kator ishlarni amalga oshirdi. Xurosonning poytaxti Hirot shaxri asta-sekin obod shaharlar sirasiga qo'shilib, Samarqanddan keyingi o'rinni egallaydi. Hirotida va boshqa shaharlarda qurilish, sug'orish ishlari, shuningdek hunarmandchilik va madaniyat tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Shoxrux va uning xotini malika Gavxarshodbegim Hirot, Balh Mashxad va boshqa shaharlarda kuppina masjid, madrasa, shifoxonalar va boshqa ma'muriy binolar qurilishiga homiylik qildilar. hukmdorlardan o'rnak olgan davlat a'yonlari, o'z shaxsiy mablag'lari hisobidan masjid, madrasalar ko'ra

boshlaydilar. Natijada, mamlakatda obodonchilik ishlari keng ko'lamda rivojlanadi.

1447 yilda Shoxrux Mirzo vafot etgach, Xuroson taxtiga kelgan Abulqosim Bobur Mirzo (1422 - 1457), Sulton Abusaid Mirzo (1424 - 1469) va ayniqsa Sulton Husayn Mirzo Boyqaro (1438 - 1506) davrlarida Xuroson muzofoti yanada ravnaq topdi.

Xuroson Sulton Xusayn Mirzo Boyqaro davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan eng yuksak darajaga ko'tarildi. Ulug'bek Mirzo qatl etilgandan so'ng, Samarqand o'z iqtidorini yo'qota boshlagach, bu shaharga yigilgan ahli ilm, ahli xunar, shoiru adiblar, musiqashunoslar, xattotu, naqqoshlar asta-sekin uni tark etib, Hirotga kela boshlaydilar. Sulton Xusayn Boyqaro va Alisher Navoiy ularga xomiylik qilib, yetarli sharoitni vujudga keltiradilar. Shu bois Sulton Husayn Boykaroning hukmronlik davrida Hirot fan va madaniyat markaziga aylandi. Bu davrda ilmu fanning barcha jabhalarida qalam tebratgan yetuk olimlar so'z ustasi suxandon xassos shoirlar, inson ruhiga hamohang, noziq ta'b musiqashunoslar, mohir xunarmand naqqoshlar va ustoz musavvirlar o'zlarining betakror asarlari bilan Xuroson va uning poytaxti Hirotning dovrug'ini jahonga mashhur qiladilar.

Bu davrda Xurosonda ko'plab ma'muriy va maishiy binolar qad ko'taradi. Chunonchi Hirot va uning atrofida bir necha xonaqoxlar, dor ush-shifolar, hammomlar, madrasalar, sardobalar, maqbaralar yangidan quriladi, eskilari esa ta'mirlanadi. Aytqsa, Alisher Navoiyning sa'y-harakatlari bilan mamlakatda yirik suv inshootlari, karvonsaroy, rabot, ko'priq shifoxonalar, xonaqoxlar va shu kabi qurilish ishlari keng ko'lamda olib borilgan. Binobarin, bu davrda Xuroson aholisi bir muncha osoyishta va farovon hayot kechirgan.